
Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga maqsadli yo'naltirish va tantanali diplom topshirish!" tadbiri tashkil etildi

 Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida 2025-yil 18-iyun kuni **"Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga maqsadli yo'naltirish va tantanali diplom topshirish!"** tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda akademik litsey bitiruvchilarining ota-onalari, faxriy ustozlar, jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.



Bu yil akademik litseyni jami **155** nafar bitiruvchi bitirmoqda. Shundan 1 nafari oltin, 5 nafari kumush medal bilan, 36 nafari a'lo darajali diplom bilan bitirmoqda.

Tadbir davomida bitiruvchilarga oltin, kumush medal, diplom hamda o'qish davrida namunali xulqi, bilimi bilan tengdoshlari orasida ajralib turgan **"Rektor olimpiadasi"** g'oliblariga akademik litsey rahbariyati tomonidan **"Tashakkurnoma"** va esdalik sovg'alari topshirildi.



2024/2025-o'quv yilida bitiruvchilar **4** ta xalqaro C1, 61 ta B2 sertifikatga, **68** ta milliy sertifikatga ega bo'ldilar.











SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati